

4-§. Adobe Photoshopda gradiyent yaratish

Gradiyent – bu bir rangdan boshqa rangga silliq o‘tish (o‘zgarish) effektidir. U dizayn, fon, tugmalar, ramkalar va boshqa grafik elementlarni bezashda keng qo‘llaniladi. Adobe Photoshop dasturida gradiyentlar orqali tasvirlarga chuqurlik, hajm, yorqinlik yoki dekorativ ko‘rinish berish mumkin.


Radiyentning asosiy xususiyatlari:

1. Ranglar o‘tishi – Gradiyent bir yoki bir nechta ranglar orasida silliq o‘tishni ta’minlaydi.
2. Yo‘nalish – Ranglar chapdan o‘ngga, yuqoridan pastga yoki burchakli yo‘nalishda o‘tadi.
3. Shakli (usuli) – Gradiyentlar bir nechta shaklda bo‘lishi mumkin:
4. Linear (chiziqli)
5. Radial (doirasimon)
6. Angle (burchakli)
7. Reflected (aks ettirilgan)
8. Diamond (rombsimon)

Photoshop dasturidagi Gradient Tool (G) – bu gradiyent yaratish uchun asosiy vosita bo‘lib, asboblar panelida joylashgan.

1-topshiriq. Photoshop dasturida **Градиент** uskunasi yordamida, ajratib olingan sohani bo‘yash.


1. **Градиент** uskunasi yordamida, ajratib olingan sohani bo‘yash uchun, **Прямоугольная область** uskunasidan foydalaniladi (M tugmasi):



4.1-rasm. Прямоугольная область uskunasi yordamida ajratilgan soha.


2. Bundan so'ng, uskunalar panelidan **Градиент** uskunasi (G tugmasi) tanlanadi.

3. Ajratib olingan sohaning ixtiyoriy nuqtasi sichqoncha chap tugmasini bosgan holda qarama-qarshi tomonga suriladi:




4.2-rasm. Ajratilgan sohani Градиент uskunasi yordamida bo'yash.

4. Градиент parametrlaridan ranglarni almashtirish uchun, uskunalar panelining quyi qismida joylashgan **Выберите основной цвет** va **Выберите фоновый цвет** uskunalari yordamida kerakli ranglar tanlanadi va yuqorida bajarilgan (3-ish) ish takrorlanadi:




4.3-rasm. Градиент xususiyatini o'zgartirish.

Градиент uskunasi yana bir imkoniyati, uni chiziqli, radius bo'yicha tarqalish, konus ko'rinishli, oynasimon tarqalish va romb shaklida namoyon bo'lishidir. Bu ishni bajarish uchun uskuna parametrlaridan keraklisini tanlash kifoya. Quyida har bir **Градиент** shakliga mos bo'yashlardan namunalar keltirilgan:



4.4-rasm. Градиент turlari.

Градиентni tahrirlash ro'yxatida tayyor shablonlar ham mavjud. Ushbu ro'yxatdan keraklisi tanlanib, yuqorida bajarilgan (3-ish) ish yana takrorlanadi:



4.5-rasm. Градиент shablonlari.

Adobe Photoshop gradiyent yordamida silliq ranglar hosil qilinadi. Grafika va dizayn sohasida gradiyentlar bir nechta ranglarni birlashtirish uchun ishlatiladi. Misol uchun, rassom Filipe Pantone o'zining aksariyat asarlarida ekspressiv gradiyentlardan, Instagram ilovasi esa o'z logotipi uchun murakkab to'rt rangli gradiyentdan foydalanadi. Bu esa grafika sohasida jozibadorlikni ta'minlaydi.

Savollar va mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

Adobe Photoshop dasturida Gradient Tool yordamida quyidagi amallarni bajaring:

1-topshiriq: Yangi ish hujjatini yarating

a) O'lchami: 800x600 px

b) Foni: Oq (White)

2- topshiriq: Gradiyent vositasini tanlang

a) Asboblar panelidan Gradient Tool (G) ni tanlang

3- topshiriq: Rang o'tishini sozlang

a) Gradiyent oynasini oching va 2 ta rangni tanlang:

Masalan: ko'k → oq yoki qizil → sariq

4- topshiriq: Gradiyentni chizing

a) Sichqonchani yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga tortib, gradiyent hosil qiling

b) Linear yoki Radial turini tanlab, har xil effektlarni sinab ko'ring

5- topshiriq: Fonga matn yozing

a) Text Tool yordamida o'zingizning ismingizni yoki "Gradiyent topshirig'i" deb yozing

6- topshiriq: Natijani saqlang

a) Rasmni .jpg yoki .png formatida saqlang
(File → Save As → Format: PNG)